

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI TARGETLASH SIYOSATINI

Mirzohidova Nozima Xasan qizi

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti makroiqtisodiyot yonalishi 2 kurs
magistratura talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada Inflatsiya to'g'risida tushuncha, tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi, Inflatsiya darajasini yanada pasaytirish borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlar yaratish bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflatsion targetlash va boshqalar to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Inflatsiya, tovar-pul, xo'jalik, qog'oz pullar, aholi, iqtisod, pul-kredit, siyosat, targetlash, tariflar, sector, bozor, iste'mol.*

Inflatsiya pul qadrsizlanishini bildiradi. Inflatsiya har yili rivojlangan davlatlarda o'rtacha 7 % tashkil etadi. Barcha iqtisodiy aloqalar inflyatsiyani hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Inflatsiya (lot. infl atio — shishish, bo'rtish, ko'tarilish), pulning qadrsizlanishi — tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. I. birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko'tarilishi ko'rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar ishlab chiqarishning to'lov qobiliyatiga ega talab o'sishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko'payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo'shimcha pul emissiyasi, investitsiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib ketishidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq harid etish, mamlakatga qadrsizlangan chet el valyutasining ko'plab kirib kelishi va boshqa omillar Inflatsiyani yuzaga keltiradi. Inflatsiya jarayoni narxlarning o'sishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir. "Inflatsiya" termini dastlab 1861—1865-yillarda Shimoliy Amerikada, so'ngra Fransiya va Germaniyada qo'llanilgan. Tovarpul muvozanatiga ko'ra, pul massasi (M) pul miqdori (t)ning pul oboroti tezligi (V)ra ko'paytmasi bo'lib, bu tovar massasi (T)ga, ya'ni bir tovar narxining (R) tovarlar miqdori (Q)ra ko'paytmasiga teng bo'lishi kerak. Bunda $M=T$ yoki $mV=PQ$ tengligi hosil bo'ladi. Agar pul ko'payib ketsa $M>T$, ya'ni pulning bir qismi ortiqcha bo'ladi. Agar pul miqdori o'zgarmaganda tovar miqdori qisqarib ketsa $T<M$ paydo bo'ladi. Har ikki holda ham ortiqcha pul narxlarning

o'sishini keltirib chiqaradi, chunki narx tovar birligiga beriladigan pul miqdoridir. Inflatsiya bu faqat pul bilan bog'liq hodisa emas, balki iqtisodiyot yuksalganda qisqaradigan, tushkunlik paytida kuchayadigan iqtisodiy holat mahsuli.

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda.

“Target” so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, “maqsad” degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi.

Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi.

O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin.

Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

Markaziy bank inflyatsiyaning erishilishi zarur eng mos maqsad (target)ini (masalan, inflyatsiyaning 5 foizli darajasiga erishish) o'rnatib, ushbu targetni pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalangan holda saqlashi lozim.

Narxlar barqarorligini ta'minlash inflyatsion targetlash rejimiga o'tishda samarali usullardan biri bo'lib, u o'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Markaziy bankning bank tizimi va to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlash singari asosiy maqsadlari qatorida turadi.

Inflatsiya darajasini yanada pasaytirish borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflatsion targetlash rejimi ekanligini ko'rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflatsiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, inflatsion targetlash rejimini joriy etish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Vazirlar Mahkamasining quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan muvofiqlashtirilgan tayyorgarlik ishlarini talab etadi:

- inflatsiyaning nomonetar omillari rolini bosqichma-bosqich pasaytirish, shu jumladan, tariflarni tartibga solishni isloh qilish, iqtisodiyotning real sektorida tarkibiy

iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlash va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish;

- Markaziy bankning makroiqtisodiy tahlil va kommunikatsiya siyosati sifatini oshirish;

- regulyatorning kredit bozoriga samarali ta'sir etishini ta'minlab beruvchi, pul bozorini tartibga solishning yangi instrumentlarini joriy etish va boshqalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risidagi 2019-yil 18-noyabr, PF-5877-sonli farmonida yozilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy banki inflatsion targetlash rejimiga to'liq o'tish uchun sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlasin, xususan:

- muvofiqlashtirilgan monetar-fiskal va monopoliyaga qarshi siyosat yuritish;

- raqobatdosh bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish hamda tovarlar va xizmatlarning to'laqonli bozorlarini shakllantirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni davom ettirish;

- monopoliyaga qarshi kurashish va narxlarni tartibga solishning zamonaviy usullariga o'tishga, shuningdek, ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirishga yo'naltirilgan tartibga solinadigan narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish;

- jamg'armalarni investitsiyalarga transformatsiya qilish uchun moliyaviy vositachilik institutlarini rivojlantirish maqsadida bank tizimi hamda moliya bozorlarini isloh etish, shuningdek, moliyaviy oqimlarni uzoq muddatli rejalashtirish uchun imkoniyat yaratish deyilgan farmonda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflatsion maqsadni (target) o'rnatish yo'li bilan 2020-yilning 1-yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflatsion targetlash rejimiga o'tkazishni ta'minlash to'g'risida shunday deyilgan:

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari etib belgilansin:

- inflatsiyaning doimiy amal qiladigan maqsadini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish;

- pul bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solish va inflatsion jarayonlarni boshqarish maqsadida pul-kredit siyosatining keng qamrovli instrumentlarini qo'llash;

- pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar qabul qilish maqsadida ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda batafsil makroiqtisodiy tahlil va prognozlarni amalga oshirish;

- pul-kredit siyosati maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazish, makroiqtisodiy holatning oldindan ko'ra bilinishini ta'minlash va bozor ishtirokchilari ishonchini

shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inflyatsion targetlash deganda – oldindan belgilanadigan inflyatsiya darajasi (target)ni keng jamoatchilikka e'lon qilish, hamda ushbu ko'rsatkichga erishish va uni saqlab qolish jarayoni tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bo'lib, 2023 yilda 5 foiz darajadagi inflyatsion maqsad (target)ga erishish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABITOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2019-yil 18-noyabr, PF-5877-son
2. Ahmadjon O'lmasov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Inflatsiya>
4. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/inflation-targeting/>